



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 254 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	

IQTISODIY IXTISOSLIK TALABALARI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RUS TILI FANINI O'QITISHDA

Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillar instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga rus tilini o'qitish jarayonida nafaqat til tizimi (grammatika va leksika), balki ularning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishning metodologik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. 1990-yillardan boshlab turli ilmiy maktablar doirasida shakllangan "shaxsiy va kasbiy kompetensiya" tushunchalariga oid yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning nazariy hamda amaliy ustunliklari va cheklavlari aniqlanadi. Zamonaviy iqtisodiy yo'nalish mutaxassislari uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar tarkibi hamda ularning namoyon bo'lish sohalari kompleks o'rganilib, ushbu kompetensiyalarni integrallashgan guruhlariga ajratish va ularni kengaytirish imkonini beruvchi konseptual model taklif etiladi. Tadqiqot natijalari asosida iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan lingvistik (rus tili misolida) yondashuv ishlab chiqiladi. Mazkur yondashuv rus tili darslari jarayonida talabalarning kasbiy kommunikativ tayyorgarligini mustahkamlash, tarmoq bo'yicha xalqaro tajribani rus tilidagi manbalar asosida o'zlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalar spektrini jahon iqtisodiyoti va mehnat bozori talablariga mos ravishda kengaytirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, iqtisodiy ixtisoslik, iqtisodiy yo'nalish mutaxassislari, kasbiy kompetensiya, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, metodologik asoslar, lingvistik yondashuv.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the methodological foundations for the step-by-step development of professional competencies of economics students in the process of teaching the Russian language. Since the 1990-s, various theoretical approaches to the concepts of "personal and professional competence," developed within different scientific schools, have been comparatively analyzed, identifying their theoretical and practical advantages and limitations. The structure and areas of manifestation of professional competencies required for modern specialists in the field of economics are comprehensively examined. A conceptual model is proposed that integrates these competencies into enlarged groups and determines the possibilities for their further expansion. Based on the research findings, a linguistic approach (using the Russian language as an example) aimed at improving the methodology for developing professional competencies of economics students has been developed. This approach focuses on strengthening professional communicative readiness, mastering international sectoral experience through Russian-language materials, and expanding the spectrum of professional competencies in accordance with the demands of the global economy and labor market.

Key words: higher education, economics specialization, economics professionals, professional competence, development of professional competencies, methodological foundations, linguistic approach.



Аннотация: В статье научно анализируются методологические основы поэтапного развития профессиональных компетенций студентов экономических направлений в процессе обучения русскому языку. Начиная с 1990-х годов, проводится сравнительный анализ подходов к понятию “личностная и профессиональная компетенция”, сформированных в рамках различных научных школ, выявляются их теоретические и практические преимущества и ограничения. Комплексно рассматривается структура профессиональных компетенций, необходимых современным специалистам экономического профиля, а также сферы их проявления. Предлагается концептуальная модель, предусматривающая интеграцию данных компетенций в укрупнённые группы и определяющая возможности их расширения. На основе полученных результатов разработан лингвистический подход (на примере русского языка), направленный на совершенствование методологии развития профессиональных компетенций студентов экономических специальностей. Данный подход ориентирован на формирование профессиональной коммуникативной готовности, освоение международного отраслевого опыта на основе русскоязычных источников и расширение спектра профессиональных компетенций в соответствии с требованиями мировой экономики и рынка труда.

Ключевые слова: высшее образование, экономическая специальность, специалисты экономического профиля, профессиональные компетенции, развитие профессиональных компетенций, методологические основы, лингвистический подход.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish va muvaffaqiyatli karera qurishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ko'plab omillar ichida markaziy o'rinni kasbiy kompetensiyalar egallaydi. Mutaxassisning mehnat bozorida talab qilinishi, uning malaka va professionallik darajasi, murakkab vazifalarni hal qila olishi hamda olingan natijalar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi aynan ularning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Ular iqtisodiy yo'nalish bo'yicha kelajak mutaxassislar faoliyatida ham asosiy rol o'ynaydi. Ularning bilimlari hamda kasbiy va shaxsiy kompetentligi darajasiga nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat va bilim saviyasi, balki “bilimlarni qanday, qayerda va qachon qo'llash”, “qaror qabul qilish” qobiliyati kabi amaliy ko'nikmalar ham ta'sir etadi.

Shunday ekan, talabalar hamda iqtisodiyot sohasi bo'yicha bo'lajak menejer va mutaxassislarni tayyorlash jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish uzluksiz modernizatsiyani taqozo etadi. Mazkur jarayon faqatgina bilim berish bilan cheklanmay, balki talabalarning kognitiv, kommunikativ, axloqiy va kreativ salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni, faol o'qitish usullarini va refleksiv baholash mexanizmlarini tizimli ravishda joriy etishni talab qiladi. Shaxsning umumiy madaniy darajasini yuksaltirish, ijobiy va konstruktiv tafakkurni shakllantirish, kasbiy identifikatsiyani qo'llab-quvvatlash ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismlari sifatida qaralishi zarur.

Global raqobat va tezkor texnologik o'zgarishlar sharoitida zamonaviy mutaxassisdan faqat keng qamrovli nazariy va amaliy bilimlar emas, balki murakkab va noaniq vaziyatlarda tezkor moslashuvchanlik, katta hajmdagi axborotni tahlil qilish va filtrlash, ko'p variantli sharoitda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish kompetensiyalari ham talab etiladi. Bo'lajak iqtisodchilar korxona va tarmoqning rivojlanish trayektoriyasini ehtimoliy ssenariylar asosida prognoz qila olishi, xatarlarni baholashi, raqamli muhitda samarali kommunikatsiya va hamkorlikni yo'lga qo'yishi, shuningdek, o'zining shaxsiy va kasbiy o'sish strategiyasini ongli ravishda rejalashtira olishi lozim.

Bunday murakkab talablarga mos kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tasodifiy pedagogik tajriba natijasi bo'la olmaydi. Bu, avvalo, oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida qayta loyihalashni, ya'ni o'quv maqsadlari, mazmuni, metodlari, baholash tizimi va ta'lim natijalarini uzviy bog'laydigan ilmiy asoslangan metodologik platformani yaratishni taqozo etadi. Puxta ishlab chiqilgan bunday metodologik baza keyingi didaktik yechimlar va boshqaruv qarorlarining konseptual tayanchi bo'lib xizmat qiladi hamda talabalarda barqaror, transfer qilinadigan kasbiy kompetensiyalar majmuasini samarali rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarning kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ta'lim nazariyasi va amaliyotining eng faol tadqiq etilayotgan yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, bu boradagi ilmiy izlanishlar mahalliy hamda xorijiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Ta'limni kompetensiyaga yo'naltirish konsepsiyasining nazariy asoslari A.V. Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, E.F. Zeer, V.A. Bolotov, Yu.G. Tatura, V.I. Baydenko, P.M. Erdineev va boshqa tadqiqotchilar ishlanmalarida chuqur tahlil qilingan bo'lib, ularning asarlarida kompetensiya tushunchasining tarkibiy komponentlari hamda uni ta'lim mazmuni va natijalari bilan integratsiyalash tamoyillari batafsil asoslab berilgan.

Mazkur yondashuvni oliy ta'lim tizimi darajasida konseptual va texnologik jihatdan ishlab chiqishga V.D. Shadrikov, N.A. Selezneva, A.M. Pavlova, V.V. Davydov, P.Ya. Galperin, P.I. Tret'yakova, A.A. Verbitskiy, O.G. Larionova kabi olimlarning ishlari muhim hissa qo'shgan. Ular kompetensiyaviy yondashuvni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faol o'qitish metodlari va refleksiv baholash tizimlari bilan uzviy bog'liq holda talqin etadilar.

Shu bilan birga, kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi Belarus ilmiy maktabi vakillari – A.V. Makarov, V.V. Poznyakov, M.V. Ilyin, V.L. Lozitskiy, N.V. Drozdova, D.A. Starovoytov, V.A. Xriptovich, E.M. Kalishko, A.P. Lobanov, S.N. Severin va boshqalar tadqiqotlarida ham turli metodologik rakurslardan yoritilgan bo'lib, ularning ishlarida mutaxassisning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini kompleks tarzda rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuvni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar faollashgan. Masalan, Hasan Normurod o'g'li Arziqulovning "Zamonaviy oliy ta'lim tizimida shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning psixologik omillari" nomli maqolasida talabaning kasbiy shakllanishida motivatsiya, refleksiya, emotsional intellekt, o'zini anglash va ta'lim muhitining psixologik iqlimi kabi omillar hal qiluvchi o'rin tutishi asoslab beriladi. Muallif D. Goleman, A. Bandura, R. Barnett va J. Raven kabi olimlarning konsepsiyalariga tayangan holda shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ochib beradi.

Bevosita iqtisodiy yo'nalish talabalari bilan bog'liq ishlarda Firuza Farmonovna Saidkulovanning "Talabalarda iqtisodiy kompetentlikni rivojlantirish zarurati" maqolasi alohida e'tiborga loyiqdir. Muallif iqtisodiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash maxsus kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, talabalarning iqtisodiy jarayonlarga qiziqishini kuchaytirish va bilimlar sifatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi hamda iqtisodiy kompetentlikni nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar birligi sifatida talqin qiladi.

Professional ta'lim va pedagog kadrlar tayyorlash sohasida N.A. Xushmatovanning "Innovatsion hamkorlik asosida professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli" nomli ishida ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik asosida kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish modeli taklif etiladi. Unda kognitiv, amaliy-operatsion va motivatsion bloklar integratsiyasi asosida kompetensiyaning tizimli tuzilmasi ishlab chiqilgan.

Xalqaro miqyosdagi ilmiy izlanishlar ham kompetensiya fenomenining ko'p o'lchovli tabiati va uni ta'lim tizimida tatbiq etish imkoniyatlarini chuqur yoritib bermoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasi-dagi DeSeCo (Definition and Selection of Competencies – Kompetensiyalarni ta'riflash va tanlash) loyihalari, Tuning Educational Structures in Europe dasturi, shuningdek, L. Boterf, R. Boyatzis, L. Spencer, S. Spencer, J. Raven, D.S. Rycken va L.H. Salganik kabi tadqiqotchilar ishlari kompetensiya tushunchasining kognitiv, effektiv, ijtimoiy va aksiologik komponentlarini aniqlashtirib, ularni baholash va rivojlantirish indikatorlarini taklif etadi.

Mazkur ishlanmalar kompetensiyani faqat "bilim, ko'nikma va malaka" yig'indisi sifatida emas, balki murakkab kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatini, ya'ni kontekstga bog'langan, transfer qilindigan va refleksiv xususiyatga ega integrativ sifatlar majmuasi sifatida talqin etishga imkon beradi.

Shu bilan birga, ko'plab mualliflar kasbiy kompetensiyalarni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ajratib ko'rsatmaydilar. Hozirga qadar iqtisodiy yo'nalishdagi bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi va uning raqamli qayta tuzilishi sharoitida mazkur kompetensiyalar rivojlanishining o'ziga xos jihatlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Shu sababli, oliy ta'lim tizimi oldida mazkur jarayonni optimallashtirishga xizmat qiladigan samarali choralar, usullar va yondashuvlarni ishlab chiqish muammosi dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa kompetensiyalarning mohiyatini aniq tushunish, ularning turlarini va turli soha hamda xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonidagi rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rus tili fanini o'qitish jarayonida rivojlantirishning metodologik asoslarini aniqlash maqsadida aralash (qualitative–quantitative) yondashuv qo'llanildi. Ma'lumotlar oliy ta'lim muassasasida rus tili mashg'ulotlari jarayonini tizimli kuzatish, o'qituvchilar va talabalar bilan yarim tuzilgan intervyular, diagnostik so'rovnoma, shuningdek, o'quv-metodik hujjatlar hamda rus tilida bajarilgan amaliy topshiriqlar (keysar, tarjima va tahliliy matnlar) natijalarini kontent tahlil qilish orqali olindi. Olingan ma'lumotlar kompetensiyalarni funksional, situatsion, intellektual, ijtimoiy va raqamli komponentlar bo'yicha kodlandi, toifalandi va taqqoslandi. So'rovnoma natijalari descriptive statistika yordamida umumlashtirilib, intervyu va kuzatuv materiallari tematik tahlil asosida talqin qilindi; yakunda manbalar o'rtasida triangu-lyatsiya orqali xulosalarning ishonchiligi mustahkamlandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiyalarni rivojlantirishning kasbiy faoliyatdagi o'rni. Bugungi pedagogik va andragogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, malakali mutaxassisni shakllantirish jarayonida kompetensiyalarni maqsadli ravishda rivojlantirish hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Aynan shu omil oliy ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarda keng qo'llanilayotgan kompetensiyaviy yondashuvning nazariy tayanchiga aylangan.

E.F. Zeer, A.M. Pavlova va E.E. Symanyuk ishlarida ushbu yondashuvning mazmuni ixcham va aniq tarzda talqin etilib, ta'lim tizimi, avvalo, shaxsning o'qishga tayyorligi va o'qiy olish qobiliyati, o'zini anglash va kasbiy o'z yo'lini belgilash layoqati, o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyoji, jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalanishi hamda individual qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Boshqacha aytganda, ta'lim maqsadlari bilimlarni "yodlash" bilangina cheklanmay, balki shaxsning butun hayoti davomida raqobatbardosh bo'lib qolishiga xizmat qiladigan yo'nalishlar sifatida ko'riladi.

Mazkur yondashuv ta'rifida kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati bevosita alohida modda sifatida ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa-da, mualliflar keyingi tahlillarida maqsadga erishish vositasi sifatida aynan yangi ta'limiy konstruktlar – kompetentlik, turli darajadagi kompetensiyalar va metakasbiy sifatlarni tilga oladilar. Talabada ana shu sifatlarni majmuasini shakllantirish ularning fundamental kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirishi, nazariy bilim va amaliy faoliyat o'rtasidagi tafovutni qisqartirishi alohida qayd etiladi.

Shu bois Zeer va hammualliflar ilgari surayotgan konsepsiyani faqat ayrim kompetensiya turlari bilan cheklab bo'lmaydi; u, tabiiy ravishda, ham umumta'limiy, ham ijtimoiy, ham kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga tatbiq qilinadi. A.A. Verbitskiy va O.G. Larionova ham kompetensiyaviy yondashuvni sharhlar ekan, ta'lim jarayoni insonni aniq amaliy vazifalarni hal etishga xizmat qiladigan, real professional kontekstga yo'naltirilgan bilimlar bilan qurollantirishi, shu bilan birga ijtimoiy va kasbiy jihatdan muhim shaxsiy sifatlarni – mas'uliyat, tashabbuskorlik, hamkorlikka tayyorlik, refleksivlik va boshqalarni rivojlantirishi zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, aynan shu kompetensiyalar majmuasi shaxsning mehnat bozori va kengroq ma'noda jamiyatdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

"Kompetensiya" tushunchasining mazmuni. "Kompetensiya" atamasi, ayniqsa "kasbiy kompetensiyalar" kategoriyasining markaziy elementi sifatida, turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinadi, biroq ko'pchilik tadqiqotchilar uni izohlashda umumiy semantik yadroni baham ko'radilar. Aksariyat manbalarda kompetensiya – shaxsda mavjud bo'lgan bilimlar, amaliy ko'nikmalar va malakalar, intellektual hamda kommunikativ qobiliyatlar, ma'lum faoliyat turlarini bajarishga tayyorlik, shuningdek, kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar majmuasi bilan bog'lanadi.

O.L. Chulanova tomonidan olib borilgan tahliliy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mavjud yondashuvlar qanchalik rang-barang bo'lmasin, ularning barchasini umumlashtiruvchi asosiy g'oya – kompetensiyani individ faoliyati samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan sifat yoki sifatlar majmuasi sifatida tushunishdir. Muallif mavjud ta'riflarni qiyosiy tahlil qilib, kompetensiyani har qanday shaxsiy xususiyat, resurs yoki potensialni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan keng tushuncha sifatida ko'rsatadi, agar u natijada faoliyatning sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilsa.

Shu asosda kasbiy kompetensiyalarni eng umumiy shaklda quyidagicha tasvirlash mumkin: ular nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan, balki kasb doirasida hamkasblar, mijozlar, rahbariyat va bo'ysunuvchilar bilan samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish qobiliyatidan, shuningdek, o'zini rivojlantirish va kasbiy vazifalarni mustaqil hal etishga yo'naltirilgan strategiyalar tizimidan iborat integrativ kompleksdir. Bu kompleks real xulq-atvor va qaror qabul qilish jarayonlarida namoyon bo'ladi va aynan shu orqali vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi hamda belgilangan maqsadlarga erishish darajasi aniqlanadi.

Boshqacha qilib aytganda, kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning ma'lum kasbiy vaziyat yoki muammo doirasida zarur bo'lgan bilim, malaka va shaxsiy sifatlardan ongli ravishda foydalanish bo'yicha individual layoqatidir. Bunday layoqatni turli diagnostik vositalar yordamida qayd etish, miqdoran baholash, maqsadli ravishda rivojlantirish va ma'lum darajada kelgusidagi natijalarni prognoz qilish mumkin.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda kasbiy kompetensiya mazmuniga oid yagona, hamma tomonidan qabul qilingan yondashuv mavjud emasligini ham unutmash kerak. Turli mualliflar ushbu kategoriyani turli komponentlarini – kognitiv, operatsion, motivatsion, aksiologik yoki ijtimoiy jihatlarni – markazga qo'yib tahlil qiladilar. Natijada kasbiy kompetensiyalarni o'rganish metodologiyasi ham ko'p qatlamli va ko'p o'lchamli xususiyat kasb etadi. Bu esa mazkur tushunchani yanada aniqlashtirish, kontekstga moslashtirish va empirik jihatdan tekshirishni talab qiladi.

Kasbiy kompetensiyalar muammosiga oid mavjud talqinlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ilmiy bahslar, avvalo, kompetensiya egasi kim ekani va bu kompetensiyani mazmuni qanday tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi kerakligi atrofida jamlangan. Biroq tadqiqotchilar o'rtasida deyarli bahs qilinmaydigan jihat shuki, kasbiy kompetensiyalar mutaxassisning amaliy faoliyatidan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi: ular shaxsning ta'lim jarayonida shakllangan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, keyinchalik aynan shu

resurslar professional faoliyat natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini nafaqat oliy ta'lim muassasalari, balki kasbiy hamjamiyat, ish beruvchilar va soha mutaxassislari uchun ham strategik vazifa sifatida ko'rish zarurligini anglatadi.

Bir qator xorijiy va mintaqaviy tadqiqotchilar kasbiy kompetensiyani professional tayyorgarlikning yakuniy maqsadi sifatida talqin etib, aynan u motor, kognitiv va ijtimoiy komponentlarni integratsiyalovchi bazaviy konstrukt ekanini ta'kidlaydilar. Demak, oliy ta'lim jarayonida shakllanadigan har qanday bilim va ko'nikmalar yakunda kasbiy kompetensiyalar tizimida mujassamlashishi kerak. Iqtisodiy yo'nalish bo'yicha bo'lajak mutaxassislarda misolida ushbu kompetensiyalar bir martalik egallangan "bilim to'plami" emas, balki butun kasbiy faoliyati davomida yangilanib boruvchi dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Talaba OTMda o'qish davrida kasbiy faoliyat uchun zarur kognitiv va amaliy asosni egallaydi, ishga kirgach esa yangi funksiyalar, bozor sharoitlari, iqtisodiy islohotlar va texnologik o'zgarishlar ta'sirida mazkur kompetensiyalarni qayta quradi, boyitadi va ixtisoslashtiradi.

Shuning uchun kasbiy kompetensiyalarni "mutaxassis tomonidan ta'lim jarayonida va kasbiy faoliyat mobaynida egallangan, professional faoliyatning mazmuni va samaradorligini belgilovchi integrativ bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar tizimi" sifatida izohlash maqsadga muvofiqdir.

Bunday talqin bir nechta metodologik ustunlikka ega. Birinchidan, kompetensiya alohida elementlar majmui emas, balki yaxlit, o'zaro bog'langan tizim sifatida ko'riladi. Ikkinchidan, tizimning uzluksiz rivojlanishi va sharoitga mos ravishda o'zgarib borishi alohida qayd etiladi. Uchinchidan, ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlari bilan mutaxassisning real amaliy natijalari o'rtasidagi bevosita aloqadorlik ochib beriladi. Nihoyat, kasbiy kompetensiyalar mutaxassisning ish faoliyati samarasini, uning kareraviy o'sishi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini aniqlovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi.

Mavjud adabiyotlarda kasbiy kompetensiyalarni tasniflashga doir turli yondashuvlar uchrasa-da, ularning barchasi OTMda shakllanadigan kompetensiyalarni rejalashtirish uchun yagona, mukammal sxema bermaydi. Umumlashtirilgan ko'rinishda kasbiy kompetensiyalarni lavozimga oid, faoliyat turlariga oid va ma'lum professional soha (masalan, moliya, marketing, buxgalteriya hisobi va boshqalar) bo'yicha kompetensiyalarga ajratish mumkin. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, lavozimlar turlari nihoyatda ko'p va tez o'zgaruvchan bo'lgani bois, barcha vazifalar uchun umumiy "universal kompetensiyalar ro'yxati"ni tuzish na ilmiy, na amaliy jihatdan oson ish emas. Bitta tashkilot doirasida ham lavozimlar guruhi uchun to'liq kompetensiyalar modeli ishlab chiqish mehnat va vaqt talab qiladi, turli tashkilotlarda esa xuddi bir xil nomdagi lavozimlar bo'yicha talablar sezilarli darajada farqlanishi mumkin.

Shu bilan birga, kasbiy kompetensiyalar nafaqat lavozim talablari, balki mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari, motivatsiyasi, qadriyatlari va faoliyat yuritish sharoitlari bilan ham belgilanadi. Xodim o'z ustida muntazam ishlasa, yangi tajriba va bilimlarni faol o'zlashtirsa, uning kompetensiyalar sohasi "obyektiv ravishda kengayadi"; aks holda, ya'ni yuqori natijalarga intilish bo'lmasa, bu soha deyarli o'zgarmay qoladi. Shunday bo'lsa-da, ilmiy ishlanmalarni umumlashtirish kasbiy kompetensiyalarni funksional, situatsion, intellektual va ijtimoiy guruhlarga ajratish imkonini beradi; ular keyinchalik ma'lum bir lavozim yoki kasb kontekstida batafsil ochib berilishi mumkin.

Funksional kompetensiyalar mutaxassisning kasbiy vazifalarni belgilangan muddatlarda va yuqori sifat darajasida bajarishiga xizmat qiladigan aniq kasbiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va texnologik malakalarning majmuasidir. Bu guruhga, masalan, iqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish, tahliliy hisobotlar tuzish, shartnomalar bilan ishlash, o'z kasbiy faoliyatini rejalashtirish va vaqtini boshqarish layoqati kiradi. Situatsion kompetensiyalar esa tez o'zgaruvchan xo'jalik sharoitida moslashuvchan qarorlar qabul qilish, noaniqlik sharoitida risklarni baholash, muammoli vaziyatni tahlil qilib, eng maqbul strategiyani tanlash qobiliyatini ifodalaydi.

Intellektual kompetensiyalar analitik va tanqidiy fikrlash, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarish, murakkab axborotni qayta ishlash, muqobil variantlarni solishtirish va innovatsion yechimlar izlash layoqati bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy kompetensiyalar esa samarali kommunikatsiya, jamoada ishlash, nizolarni konstruktiv hal etish, mijozlar va hamkasblar bilan professional o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish, liderlik va mas'uliyat kabi sifatlarini o'z ichiga oladi.

Biroq bugungi kunda faqat ushbu to'rtta guruh bilan cheklanib qolish zamonaviy iqtisodiy muhit talablarini to'liq qondira olmaydi. Jadal axborot oqimi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va biznes jarayonlarining texnologik murakkablashuvi mutaxassisdan qo'shimcha ravishda axborot-texnologik va raqamli kompetensiyalarni, shuningdek, rus tiliga bo'lgan ehtiyojni ham talab qilmoqda. Rus tilini kompetensiyaviy bilish, avvalo, zarur ma'lumotni mustaqil izlash va tarjima qilish, tushunish, filtrlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga mos shaklga keltira olishni, shuningdek, kasbiy faoliyatda foydalaniladigan dasturiy mahsulotlar va texnik vositalarni samarali ishlata olishni o'z ichiga oladi. Raqamli kompetensiyalar esa keng ma'noda raqamli texnologiyalar, servislar va platformalardan foydalanish madaniyatini ifodalaydi.



Bu yerda gap nafaqat rus tilini grammatik va morfologik jihatdan bilish yoki so'z boyligi, balki uni kasbiy faoliyatda qo'llay oladigan darajada o'rganish haqida ham bormoqda. Shuningdek, moliyaviy va statistik paketlar hamda shu kabi sohaga oid ma'lumotlarni rus tilida izlash, tushunish va tahlil qila olish, onlayn analitika vositalari, elektron hujjat aylanishi, masofaviy aloqa va hamkorlik platformalaridan foydalanishda rus tilida erkin muloqot qila olish darajasida til etikasi tamoyillarini bilish ham nazarda tutiladi. Bunday kompetensiyalar jarayonlarni tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, hisob-kitoblarning aniqligini ta'minlash, xalqaro hamkorliklarni rivojlantirish, dunyo tajribasi va soha yangiliklaridan tez xabardor bo'lish hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, zamonaviy iqtisodchi-mutaxassis uchun zarur kompetensiyalar majmuasi funksional, situatsion, intellektual, ijtimoiy, axborot-texnologik va raqamli komponentlarni qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida ko'rinishi lozim. Aynan shunday integratsiyalashgan tizim mutaxassisga yuqori kasbiy mahorat darajasiga erishish, martaba pog'onalarida tez ilgariylash va mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lib qolish uchun zarur imkoniyatlarni beradi. Jumladan, iqtisodchi kadrlar uchun rus tilini muloqot darajasida bilish, ma'lumotlarni to'g'ri va aniq tarjima qilish, tushunish hamda xalqaro hamkorliklar uchun nutqiy ravonlikka ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish rus tilini o'qitishning ajralmas qismi bo'lib, zamonaviy oliy ta'limning strategik vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Rus tilini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish samarali kasbiy kompetensiyalarning nazariy va amaliy asoslarini chuqur anglash, ularni shakllantirish jarayonini boshqarish hamda iqtisodiy sharoitlar o'zgarishini hisobga olgan holda doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va takomillashtirib borish imkonini beradi. Buning uchun bo'lajak mutaxassislar OTMda tahsil olayotgan davrdayoq kasbiy kompetensiyalarni sistematik ravishda rivojlantirishga qaratilgan yangilangan o'quv rejalari, dasturlar va metodikalar bilan qamrab olinishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu ma'noda, kasbiy kompetensiyalar bo'yicha mavjud ilmiy ishlanmalarni umumlashtirish va ularni rus tilini o'rgatish ta'limi tizimi sharoitiga moslashtirish zamonaviy iqtisodiyot talablari, mehnat bozori ehtiyojlari hamda global raqobat sharoitlarida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim sharti sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gnevashova V.A. Mehnat bozorining yoshlar segmentini oliy kasbiy ta'lim tizimi orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish asosida rivojlantirish: iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati, ixtisoslik 08.00.05 / Rossiya bo'yicha Hayot darajasi markazi. – Moskva, 2012. – 48 bet.
2. Guseynov E.Z. Texnik oliy o'quv yurti talabalari mustaqil ishida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari: pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati, ixtisoslik 13.00.08 / M. Akmulla nomi-dagi Bashqird davlat pedagogika universiteti. – Ufa, 2016. – 26 bet.
3. Nikolasva D.R. Oliy ta'lim tizimida talabalar kasbiy kompetensiyalarini baholashning matematik modellashtirilishi: texnika fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati, ixtisoslik 05.13.18 / Tyumen davlat universiteti. – Tyumen, 2017. – 22 bet.
4. "Kasbiy kompetensiyalar haqida 10 daqiqa: ularni Performance Review jarayonida qanday qo'llash mumkin" [elektron manba]. – 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.